

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

INTELLEKTUAL MULK OBYEKTлари TO'G'RISIDAGI QONUNCHILIK TAKOMILLASHTIRILISHI MUNOSABATI BILAN O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING AYRIM QONUN HUJJATLARIGA O'ZGARTISH VA QO'SHIMCHALAR KIRITISH HAQIDA

Qonunchilik palatasi tomonidan 2021-yil 24-sentabrda qabul qilingan
Senat tomonidan 2021-yil 19-noyabrda ma'qullangan

1-modda. O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 14-iyunda qabul qilingan "Kooperatsiya to'g'risida"gi 295-XII-sonli Qonuni (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1991-yil, № 8, 193-modda; 1994-yil, № 2, 52-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998-yil, № 9, 181-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2017-yil, № 6, 300-modda; 2019-yil, № 5, 267-modda; 2021-yil, 4-songa ilova) 5-moddasi 2-bandining **birinchi xatboshisidagi** "kooperativ joylashgan erdagi hokimlikda" degan so'zlar "davlat xizmatlari markazlarida" degan so'zlar bilan almashtirilsin.

2-modda. O'zbekiston Respublikasining 1994-yil 6-mayda qabul qilingan "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi 1062-XII-sonli **Qonuniga** (O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 29-avgustda qabul qilingan 397-II-sonli Qonuni tahririda) (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2002-yil, № 9, 158-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2008-yil, № 7, 355-modda; 2011-yil, № 12/2, 364-modda; 2017-yil, № 6, 300-modda, № 9, 510-modda; 2020-yil, № 1, 1-modda, № 10, 593-modda; 2021-yil, 4-songa ilova, № 8, 801-modda) quyidagi o'zgartish va qo'shimcha kiritilsin:

- 1) 3-moddaning **ikkinchi qismidagi** "qoidalar qabul qiladi va" degan so'zlar chiqarib tashlansin;
- 2) quyidagi mazmundagi VI¹ bo'lim bilan to'ldirilsin:

"VI¹. Sanoat mulki obyektlari to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun jarima solish asoslari va tartibi, shuningdek yuridik shaxslar tomonidan jarimani to'lash tartibi

33¹-modda. Sanoat mulki obyektlari to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik asoslari

Tegishli patentlangan sanoat mulki obyektini o'z ichiga olgan mahsulotni yoki buyumni ruxsatsiz tayyorlash, qo'llash, import qilish, sotishga taklif etish, sotish, fuqarolik muomalasiga boshqa yo'sinda kiritish yoki shu maqsadda saqlab turish, shuningdek ixtiro patenti bilan muhofaza qilinayotgan usulni qo'llash yoxud ixtiro patenti bilan muhofaza qilinayotgan usulda bevosita tayyorlangan mahsulotni fuqarolik muomalasiga kiritish yoki shu maqsadda saqlab turish yuridik shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. Jarimalar miqdorlari huquqbuzarliklarning har bir turi bo'yicha alohida belgilanadi.

Patent egasining arizasi asosida Agentlik sanoat mulki obyektlaridan foydalanish huquqiga rioya etilishini tekshirishni amalga oshiradi. Tadbirkorlik subyektlariga nisbatan o'tkaziladigan tekshiruvlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil bilan kelishuvga ko'ra, qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Jarimalar ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan tartibda o'tkaziladigan tekshiruvlar asosida Agentlik tomonidan solinadi. Bunda tekshiruv davomida aniqlangan huquqbuzarlik to'g'risida dalolatnoma tuzilib, u tegishincha Agentlikning va huquqbuzar yuridik shaxsning (bundan buyon matnda huquqbuzar deb yuritiladi) mansabdor shaxslari tomonidan imzolanadi.

Huquqbuzar (uning vakili) dalolatnomani imzolashni rad etgan taqdirda, Agentlikning mansabdor shaxsi ushbu fakti ko'rsatilgan dalolatnomaga ilova qilinadigan videoyozuv yordamida yoki ikki nafar xolis hozirligida tasdiqlashi kerak.

Undirilgan jarima miqdorining o'n foizi Agentlikning budjetdan tashqari jamg'armasiga, qolgan qismi O'zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga yo'naltiriladi.

33²-modda. Jarima solish to'g'risida qaror qabul qilish muddati va uni huquqbuzarga yuborish

Jarima solish uchun asos bo'lgan huquqbuzarlik aniqlanganligi haqida dalolatnoma rasmiylashtirilgan kundan e'tiboran besh ish kuni ichida Agentlik huquqbuzarga nisbatan ushbu Qonun 33¹-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan miqdorlarda jarima solish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Jarima solish to'g'risidagi qaror Agentlikning rahbari (uning o'rnini bosuvchi shaxs) tomonidan imzolanadi va bir ish kuni ichida huquqbuzarga yuboriladi.

33³-modda. Jarimani ixtiyoriy ravishda to'lash

Jarima solish to'g'risidagi qaror yuborilgan kundan e'tiboran bir oy ichida huquqbuzar ushbu qarorda nazarda tutilgan jarima summasini ixtiyoriy ravishda to'lashi mumkin.

Jarima solish to'g'risidagi qarorda nazarda tutilgan jarima summasi miqdorining yetmish foizi huquqbuzar tomonidan ixtiyoriy ravishda to'langan taqdirda, huquqbuzar jarimaning qolgan summasini to'lashdan ozod etiladi.

33⁴-modda. Jarimani undirish

Huquqbuzar tomonidan jarima summasi ixtiyoriy ravishda to'lanmagan taqdirda, Agentlik jarimani undirish to'g'risidagi da'vo arizasini sudga belgilangan tartibda besh ish kuni ichida beradi.

Huquqbuzar Agentlikning jarima solish to'g'risidagi qarori ustidan shikoyat qilishga haqli".

3-modda. O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 27-dekabrda qabul qilingan "Advokatura to'g'risida"gi 349-I-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-yil, № 2, 48-modda; 2001-yil, № 1-2, 23-modda; 2003-yil, № 5, 67-modda; 2004-yil, № 1-2, 18-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2005-yil, № 9, 312-modda; 2008-yil, № 12, 641-modda; 2009-yil, № 9, 337-modda; 2018-yil, № 10, 673-modda; 2019-yil, № 1, 3-modda, № 5, 267-modda, № 9, 591-modda; 2021-yil, 4-songa ilova) [4-moddasiga](#) quyidagi o'zgartishlar kiritilsin:

[uchinchi qismidagi](#) "adliya organlari" degan so'zlar "davlat xizmatlari markazlari" degan so'zlar bilan almashtirilsin;

[o'ninchi qismidagi](#) "ro'yxatdan o'tkazuvchi organni" degan so'zlar "adliya organini" degan so'zlar bilan almashtirilsin.

4-modda. O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 30-avgustda qabul qilingan "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida"gi 267-II-sonli [Qonuniga](#) (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001-yil, № 9-10, 178-modda; 2002-yil, № 9, 165-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2007-yil, № 9, 418-modda; 2011-yil, № 12/2, 364-modda; 2012-yil, № 12, 336-modda; 2017-yil, № 4, 137-modda, № 9, 510-modda; 2020-yil, № 1, 1-modda, № 10, 593-modda; 2021-yil, 4-songa ilova, № 8, 801-modda) quyidagi o'zgartish va qo'shimcha kiritilsin:

1) 4-moddaning [ikkinchi qismidagi](#) "tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan" degan so'zlar chiqarib tashlansin;

2) quyidagi mazmundagi 37¹-modda bilan to'ldirilsin:

"37¹-modda. Tovar belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun jarima solish asoslari va tartibi, shuningdek yuridik shaxslar tomonidan jarimani to'lash tartibi

Tovar belgisidan, tovar kelib chiqqan joy nomidan yoki ular bilan adashtirib yuboradigan darajada o'xshash bo'lgan bir turdagi tovarlar uchun belgilardan qonunga xilof ravishda foydalanish yuridik shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. Jarimalar miqdorlari huquqbuzarliklarning har bir turi bo'yicha alohida belgilanadi.

Huquq egasining arizasi asosida Agentlik tovar belgisidan va tovar kelib chiqqan joy nomidan foydalanish huquqiga rioya etilishini tekshirishni amalga oshiradi. Tadbirkorlik subyektlariga nisbatan o'tkaziladigan tekshiruvlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik